**3.** Prujinasining bikrligi ***200 N/m*** bo'lgan dinamometr bilan ***2 kg*** massali jism gorizontal sirtda tekis harakatlantirilmoqda. Jism va sirt orasidagi ishqalanish koeffitsiyenti ***0,4*** ga teng bo'lsa, dinamometr prujinasi necha ***sm*** cho`ziladi? Dinamometr gorizontal holatda deb hisoblang.
A) 2  B) 8  C) 4  D) 6

**4.** Bir xil kuch ta'sirida harakatlanayotgan uchta jismning tezlanishlari $a_1 > a_2 > a_3$ munosabatda bo'lsa, ularning qaysi biri inertliroq?
A) barchasiniki bir xil  B) birinchisi
C) uchinchisi  D) tezlanish inertlikka bog'liq emas

**5.** Odam poyezd bilan yonma-yon , poyezdning oldi bilan bir chiziqda turibdi. Poyezd a=0,1 m/s² tezlanish bilan harakat qila boshlagan paytda odam ham shu yo'nalishda v=1,5 m/s tezlik bilan chopa boshladi. Qancha t vaqtdan keyin poyezd odamga yetib oladi? Shu paytdagi poyezdning tezligi va odamning shu vaqt ichida o'tgan yo'li aniqlansin.
A) 25 s; 4 m/s; 40 m  B) 30 s; 3 m/s; 45 m
C) 25 s; 3 m/s; 45 m  D) 30 s; 4 m/s; 45 m

**6.** Tekislikda yotgan 1,5 kg massali jism qanday kuch ta'sirida 1 s da 3 m/s tezlikka erishadi (N)? Jismga ta'sir etayotgan ishqalanish kuchini 2 N ga teng deb hisoblang.
A) 4,5  B) 7,6  C) 8,2  D) 6,5

**7.** Qaytgan va tushayotgan nurlar orasidagi burchak $70^0$ bo'lishi uchun yassi ko'zguga nur qanday burchak ostida tushishi lozim?
A) $35^0$  B) 40°  C) 70°  D) 140°

**8.** O nuqtadagi tezligi 20 m/s bo'lgan 4 kg massali jismga yo'lning uzunligi 10 m bo'lgan OL qismida o'zgarmas 20 N ishqalanish kuchi ta'sir etgan va yo'lning qolgan qismi silliq bo'lsa, jismning N nuqtasidagi tezligi necha m/s?




A) 12  B) 14,1  C) 16  D) 18

**9.** Kuchlanganligi 40 kV/m bo'lgan bir jinsli elektr maydonda zaryadi 27 nC bo'lgan qo'zg'almas nuqtaviy zaryad joylashgan. Zaryad orqali o'tuvchi va va kuch chiziqlariga perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziqda zaryaddan 9 sm masofada yotgan nuqtalardagi natijaviy maydon kuchlanganligi qancha (kV/m)?
A) 25  B) 50  C) 70  D) 10

**10.** Velosipedchi egrilik radiusi R=70 m radiusli aylana yoyi bo'ylab burilayotganda vertikalga nisbatan α=30° burchakka og'gan bo'lsa, uning tezligi qancha (m/s)?
A) 10  B) 15  C) 20  D) 25

**11.** Suvda 10 m chuqurlikda yotgan 0,5 m³ hajmli toshni (ρ=2500 kg/m³) suv yuziga olib chiqish uchun kamida necha kJ ish bajarish kerak? g=10 m/s².
A) 45  B) 55  C) 65  D) 75

**12.** Radiusi R bo'lgan sovun pufakchasi ichidagi bosim qancha? $P_0$ - atmosfera bosimi , σ - sovunning suvdagi eritmasining sirt taranglik koeffisiyenti.
A) $P = P_0 + \frac{2\sigma}{R}$  B) $P = P_0 + \frac{4\sigma}{R}$
C) $P = P_0 - \frac{2\sigma}{R}$  D) $P = P_0 - \frac{4\sigma}{R}$

**13.** Agar 480 nm to'lqin uzunlikdagi yorug'lik vakuumdan biror muhitga o'tganda to'lqin uzunligi 192 nm ga kamaygan bo'lsa, yorug'likning shu muhitdagi tezligini toping (m/s).
A) $1\cdot10^8$  B) $1,2\cdot10^8$  C) $1,5\cdot10^8$  D) $1,8\cdot10^8$

**14.** Yoqut uchun to'la ichki qaytishning chegaraviy burchagi $30^0$ ga teng bo'lsa, yoqutning absolyut nur sindirish ko'rsatkichini aniqlang?
A) 1,79  B) 1,4  C) 1,21  D) 2

**15.** Linzadan 50 sm uzoqlikda turgan buyumning 5,5 marta kichraygan mavhum tasviri hosil bo'ldi. Linzaning optik kuchini toping (dptr)?
A) -9  B) -5  C) -8  D) -2

**16.** Ipga osilgan metalldan yasalgan halqa ichiga magnit janubiy qutbi bilan kiritila boshlaganda, halqa magnitga tortiladimi yoki undan itariladimi?
A) tortiladi  B) itariladi
C) halqa aylana boshlaydi
D) halqa harakatlanmaydi

**17.** 400 K haroratdagi suv bug'i ($H_2O$)ning bitta molekulasi to'la kinetik energiyasining o'rtacha qiymati aniqlansin (J)?
A) $14,36\cdot10^{-21}$ B) $16,56\cdot10^{-21}$
C) $8,56\cdot10^{-21}$ D) $6,56\cdot10^{-21}$

**18.** Massasi 1 kg bo'lgan bolg'acha bilan 75 g massali mix vertikal devorga qoqilmoqda. Berilgan shartlardan foydalanib bolg'achaning FIK ini aniqlang (%). A) 56 B) 7 C) 64 D) 93

**19.** 273 K temperaturada ichki diametri 5 sm ga teng bo'lgan mis halqa necha Kelvin temperaturagacha qizdirilsa, uning ichidan diametri 5,01 sm bo'lgan metall shar o'tishi mumkin? ($\alpha=1,7\cdot10^{-5}$ $K^{-1}$)
A) 285 B) 420 C) 390 D) 465

**20.** G'altakdan o'tayotgan tok tekis orta boshlasa nima bo'ladi?
A) asosiy tok yo'nalishiga teskari yo'nalishda induksion tok hosil bo'ladi
B) asosiy tok yo'nalishi bilan bir yo'nalishda induksion tok hosil bo'ladi
C) g'altak ichida magnit maydon induksiyasi kamaya boshlaydi
D) g'altak qisqara boshlaydi

**21.** 1 kg massali suv 80 K ga isitilganda, uning massasi qancha ortadi (g)? (c=4200 J/(kg K).
A) $3,73\cdot10^{-9}$ B) $2,45\cdot10^{-12}$
C) $8,7\cdot10^{-10}$ D) $6,3\cdot10^{-10}$

**22.** Uzunligi L= 60 sm, qarshiligi R=0,2 Ω bo'lgan A-B o'tkazgich C-D mis shinalar orqali EyuK i E=0,96 V va ichki qarshiligi r=0,1 Ω bo'lgan tok manbaiga ulangan. Shinalar qarshiligini hisobga olmaslik mumkin. Bu sistema induksiyasi B=1,6 T bo'lgan bir jinsli magnit maydonda joylashgan. Agar A-B o'tkazgich v=0,5 m/s tezlik bilan o'ng tomonga tekis harakatga keltirilsa, A-B o'tkazgichdan necha Amper tok o'tadi?




A) 1 B) 1,2 C) 1,6 D) 2

**23.** Shkala bo'limlari 0 dan 150 V gacha bo'lgan voltmetr bilan 0 dan 250 V gacha kuchlanishni o'lchash uchun qo'shimcha qarshilik $R_q$ qancha (Ω) bo'lishi kerak? $R_V$=600 Ω.




A) 220 B) 400
C) 450 D) 840

**24.** 1 kg massali kislorod ($O_2$) gazini adiabatik siqishda 100 kJ ish bajarildi. Agar siqilguncha gazning harorati 300 K bo'lsa, gazning oxirgi haroratini toping?
A) 146 K B) 454 K
C) 768 K D) 514 K

**25.** Quvvati 600 W bo'lgan elektr choynak 20 minutda $10^0$C temperaturadagi 1,5 ℓ suvni qaynatadi. Choynakning FIK ini aniqlang? Ta'rif bo'yicha 1 kW·soat elektr enrgiyaning narx 150 so'm bo'lsa, iste'mol qilingan elektr energiya narxi qancha? $c_{suv} = 4200\ \frac{J}{kg\cdot K}$
A) 79%; 25 so'm B) 69%; 50 so'm
C) 79%; 30 so'm D) 69%; 38 so'm

**26.** Miltiqdan gorizontga nisbatan biror burchak ostida o'q otildi va o'q 40 s dan keyin yerga tushdi. Agar o'qning harakati vaqtida maksimal tezligi minimal tezligidan ikki marta katta bo'lganligi ma'lum bo'lsa, o'qning maksimal ko'tarilish balandligi (m) qancha? O'qning harakatiga havoning qarshligini hisobga olmang.
A) 1500 B) 900
C) 2000 D) 4000

**27.** Nuqta v=50 sm/s tezlik bilan aylana bo'ylab tekis harakatlanmoqda. Tezlik vektori t = 2 s da yo'nalishini $\alpha = 30^0$ ga o'zgartirayotgan bo'lsa, nuqtaning normal tezlanishini aniqlang?
A) 13 $sm/s^2$ B) 12 $m/s^2$
C) 7 $sm/s^2$ D) 3 $mm/s^2$

**28.** 2 ta qo'zg'almas +q va +4q zaryadlar bir-biridan 60 sm masofada mahkamlangan . Uchinchi Q zaryad muvozanatda bo'lishi uchun uni +4q zaryaddan necha sm uzoqlikda joylashtirish kerak?
A) 40 B) 20
C) 80 D) 15

**29.** Zaryadlarining sirtiy zichliklari $\sigma_1 = 0,4\ \frac{\mu C}{m^2}$ va $\sigma_2 = 0,1\ \frac{\mu C}{m^2}$ bo'lgan 2 ta musbat zaryadlangan parallel cheksiz tekisliklar orasidagi natijaviy elektr maydon kuchlanganligi aniqlansin (kV/m)?
A) 15 B) 17 C) 16 D) 16,7

**30.** Xonadagi harorat $15^0$C dan $27^0$C gacha gacha ko'tarilsa, xonadagi molekulalarning umumiy soni necha % kamayadi? P=const.
A) 4 B) 30 C) 8 D) 22

**Tuzuvchilar: Boynazarov Rashid.**
**Xolmo'minov Nuriddin.**
**+99891 214 13 72**

# BIOLOGIYA

**1.** Xantoriadagi qaysi xususiyatlar oq po‘panakda ham uchraydi?
1) avtotrof oziqlanish; 2) geterotrof oziqlanish; 3) hujayrasi yadroga ega; 4) hujayrasi xitin qobiqli; 5) parazit hayot tarzi; 6) eukariot organizm
A) 3, 6 B) 1 ,5 C) 2, 6 D) 4, 5

**2.** Tuban (a) va yuksak (b) zamburug‘larga xos belgilarni aniqlang.
1) jinsiy ko‘payishi suvo‘tlarnikiga o‘xshash bo‘ladi;
2) mitselliysida to‘sig‘i bo‘lmaydi; 3) mitselliysi ko‘p hujayrali; 4) mitselliysi to‘siqli; 5) jinsiy ko‘payishi maxsus jinsiy organlarningqo‘shilishi orqali amalga oshadi;
6) jinsiy ko‘payishda zigota hosil qiladi; 7) jinsiy ko‘payish kuzatilmaydi
A) a - 3, 5, 7; b - 1, 3, 4 B) a - 1, 7; b - 2, 3, 6
C) a - 1, 2; b - 3, 4, 5 D) a - 2, 5; b - 3, 4, 6

**3.** Disaxarid (a), aminokislota (b) va lipid (c) larni aniqlang.
A) a — laktoza; b — guanin; c — mum
B) a — fruktoza; b — arginin; c — testosteron
C) a — rnaltoza; b — tirozin; c — xolesterol
D) a — glukoza; b — glutamin kislota; c — estrogen

**4.** Drozofilada ovogenez jarayonida kuzatiladigan hodisalar qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
1) ko‘payish davrida reduplikatsiya sodir bo‘ladi; 2) o‘sish davrida xromosomalar soni ikki marta ortadi; 3) shakllanish davrida hujayralarning 50%i Y xromosomaga ega; 4) o‘sish davrida hujayralarda translyatsiya kuzatilmaydi;
5) hujayralarning barchasi X xromosomaga ega bo‘ladi;
6) ko‘payish davrida diploid hujayralar hosil bo‘ladi
A) 1, 5 B) 1, 2 C) 2, 4 D) 3 ,6

**5.** Organizmlarning ko‘payish va rivojlanish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan to‘g‘ri ma’lumotlarni aniqlang.
1) qirg‘ovulning tuxumdan chiqqan bolasining ko‘zi yumuq, tanasi siyrak par bilan qoplangan bo‘ladi; 2) uy pashshasi tuxumidan boshi va oyog‘i bo‘lmaydigan lichinka chiqadi; 3) nam tuproqda odam askaridasi tuxumida lichinkalar rivojlanadi; 4) suv shillig‘i germafrodit ekanligi bilan oq planariyadan farq qiladi
5) qum bo‘g‘ma iloni tirik tug‘ishi bilan kaltakesakdan farq qiladi;
6) tulkilar va tyulenlar tug‘ilgan bolasining ko‘zi yumuq bo‘ladi
A) 2, 3, 5 B) 1, 4, 6 C) 2, 4, 5 D) 1, 3 ,5

**6.** Ontogenetik o‘zgaruvchanlikni aniqlang.
1) bug‘doy tetraploid navining mavjudligi; 2) kapalak qurtida 5 juft soxta oyoqlarining yo‘qolishi; 3) tabiatda qayin odimchisining qoramtir ranglilarining paydo bo‘lishi;
4) itbaliqda tashqi jabraning ichki jabra bilan almashinishi
A) 2, 4 B) 1,4 C) 1, 3 D) 2 ,3

**7.** Rangni ajrata olmaslik kasalligiga chalingan ayol (onasi va akasi rangni normal ajrata oladi) sog‘lom erkakka turmushga chiqdi. Ushbu oila uchun mos keladigan to‘g‘ri fikrni aniqlang.
A) ayol kasallikni yuzaga chiqaruvchi geni faqat otasidan olgan
B) ayolning o‘g ‘il farzandlaridan biri rangni normal ajrata oladi
C) ayolning opasi ushbu belgi bo`yicha fenotipik sog`lom bo`lishi mumkin
D) ayol qiz farzandlarining 50%i sog‘lom tug‘iladi

**8.** Quyidagi navlar orasidan rezavor (a) va ko‘sak (b) mevali o‘simliklarni ajrating.
1) Soyaki; 2) Toshkent-3; 3) Sohibi; 4) Charos;
5) Namangan-34
A) a-1, 2; b-3, 4 B) a-1, 3; b-2, 5
C) a-4, 5; b-1, 2 D) a-3, 5; b-2, 4

**9.** DNK qo`sh zanjirida 126 ta vodorod bog` bo`lib sitozin purin asosidan 1,6 marta kam bo`lsa, umumiy nukleotidlarni aniqlang.
A)108 B)98 C)100 D)96

**10.** Zuhrasoch qirqqulog‘ining jinssiz bo‘g‘ini uchun mos javobni belgilang.
A) ildizpoyali o‘simlik, zigota hosil qiladi
B) sporadan rivojlanadi, tuxum hujayra hosil qiladi
C) sporofit nasi hisoblanadi, zigota hosil qiladi
D) spora hosil qiladi, poya-bargli o‘simlik

**11.** Yo‘sinlarning jinsiy bo‘g‘ini uchun xos bo‘lmagan javobni toping.
A) Gametofit nasl hisoblanadi, mustaqil oziqlanadi.
B) Sporadan rivojlanadi, mustaqil oziqlanadi.
C) Gametofit nasl hisoblanadi, ko‘p hujayrali, poya-bargli o`simlik.
D) Zigotadan rivojlanadi, spora hosil qiladi.

**12.** To‘g‘ri ma’lumot keltirilgan javobni aniqlang.
A) Topinambur suttikandoshlar oilachasiga kiradi
B) Baobab sho`radoshlar oilasiga kiradi
C) Tikan daraxt gledichiya deb ham ataladi
D) Nor piyoz, Suvorov piyozi, Oshanin piyozi xushmanzara tur hisoblanadi

**13.** Maymunjonga xos bo`lmagan ma’lumotlarni belgilang.
1) magnoliyatoifa bo‘limiga mansub; 2) tikani bargning o‘zgarishidan hosil bo‘lgan; 3) tikani po‘stlog‘ining o‘zgarishidan hosil bo‘lgan; 4) tamaki bilan bitta oilaga mansub; 5) gullari shoxlar uchidagi gajak to‘pgulda joylashgan; 6) tuguncha ichida urug‘kurtak rivojlanadi
A) 2, 4, 5 B) 2, 6 C) 3, 4, 5 D) 1, 6

**14.** Odamning ko‘payish organlariga xos bo‘lgan to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.
A) Yo‘ldosh homilani ona organizmidagi zararli kimyoviy moddalar va mikroblardan ma’lum darajada himoya qiladi
B) Prostata bezi juft erkaklik jinsiy bezi hisoblanib, unda spermatozoidlar va androsteron ishlab chiqariladi
C) Tuxumdon bir juft bo‘lib, tuxum hujayra hamda esterogen va androsteron fermentlarini ishlab chiqaradi
D) Tuxumdonning po‘stloq qismida ko‘plab yosh jinsiy hujayralar bo‘lib, ularning ayrimlari tuxumdon to‘qimasini yorib, bachadon nayiga o‘tgach yetiladi

**15.** To`g`ri fikrlar berilgan javobni aniqlang.
1) suvo'tlarda qoplovchi va mexanik to'qima rivojlangan;
2) ulotriks va laminariya zoosporalar orqali jinssiz ko'payadi; 3) bir hujayrali suvo'tlarda fotosintez va xemosintez amalga oshadi;
4) yapoп lamiпariyasiпiпg hayot siklida gametalar hosil bo'ladi; 5) suvo'tlarda zoosporalar juft-juft bo'lib qo'shilib zigota hosil qiladi;
6) fillofora va porfira qizil suvo'tlarga mansub; 7) ulva yashil suvo'tlarga mansub
A) 2,6,7 B) 4,5,7 C) 3, 5, 6 D) 1,2,4

**16.** O zbekistonda iqlimlashtirilgan baliq turkumi va uning vakillari to‘g`ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.
A) karpsimonlar turkumi — oq amur, gulmoy
B) karpsimonlar turkumi — oq a mur, xumbosh
C) karpsimonlar turkumi - xumbosh, bakra
D) lsossimonlar turkumi — xumbosh, gulmoy

**17.** Lansetnik (a), dengiz tulkisi (b) ga xos bo`lgan xususiyatlarni belgilang.
1 ) ayirish sistemasi bir juft tasmasimon buyrakdan iborat;
2) eshitish organi ichki quloqdan iborat; 3) nerv sistemasi tana bo‘ylab ketgan nerv nayidan iborat; 4) yuragi ikki kamerali; 5) muskullari ikki yon tomonida tana bo‘ylab uzun tasma shaklida joylashgan; 6) ko‘krak umurtqalari, qovurg`a,lar va to‘sh suyagi ko‘krak qafasini hosil qiladi
A) a - 1,2; b - 3 ,4 B) a - 3, 5; b - 1, 4
C) a - 1, 5; b - 2, 6 D) a - 1, 3; b – 6

**18.** Bushuyev va Rod-Aylend zotlari uchun umumiy bo‘lgan ma’lumotlarni belgilang.
1) siydik yo‘li kloakaga ochiladi; 2) tashqi quloq quloq suprasi va eshituv yo‘lidan iborat; 3) miyachasi po‘stlog‘ida burmalari ko‘p; 4) xordalilar tipiga, mansub; 5) embrioni ona organizmidan tashqarida rivojlanadi; 6) yuragi to‘rt kamerali
A) 3, 5, 6 B) 3, 4, 6 C) 1, 2, 5 D) 1, 2, 4

**19.** Oltingugurt bakteriyalari oltingugurt vodorodini sulfat kislotaga aylantiruvchi organizm hisoblanadi. U xemosintez usulida oziqlanadi. Ushbu matnda biosfera tirik moddasining qaysi funksiyalari aks etgan?
A) gazlar almashinish, konsentratsiyalash
B) oksidlanish-qaytarilish, biokimyoviy
C) konsentratsiyalash, oksidlanish-qaytarilish
D) gazlar almashinish, biokimyoviy

**20.** Qaysi javobda odam organizmi kichik qon aylanish doirasida qon harakati to‘g‘ri berilgan?
1) chap bo`lmacha; 2) o‘pka kapillarlari; 3) o‘pka venalari; 4) o‘pka arteriyasi; 5) o‘ng qorincha; 6) o‘ng bo‘lmacha; 7) chap qorincha
A) 7, 3, 2 , 4, 5 B) 5, 4, 2, 3, 1
C) 5, 4, 2, 3, 6 D) 5, 3, 2, 4, 1

**21.** Temurning bir sutkalik ovqat ratsioni tarkibida oqsil bilan yog‘ning miqdori teng. Uglevod esa 500 g ni tashkil qiladi. Oqsil va uglevod 1:5 nisbatda bo4adi. Temurning ovqatlanishiga xos to‘g‘ri fikrni aniqlang.
A) Uglevod va oqsildan hosil bo‘lgan energiya 2360 kkal ni tashkil qiladi.
B) Yog‘dan hosil bo‘lgan energiya uglevoddan hosil bo‘lgan energiyadan 1 12 0 kkal ko`p.
C) Yog‘dan hosil bo`lgan energiya oqsildan hosil bo`lga.n energiyadan 528 kkal ko‘p.
D) Uglevod va yog‘dan hosil bo‘lgan energiya 2980 kkal ni tashkil qiladi.

**22.** Odamning shartsiz refleksiga doir to`g` r i fikrni aniqlang.
A) markazi bosh miya katta yarimsharlari po`stlog‘ida joylashgan
B) tashqi va ichki tormozlanishga bo`linadi
C) shartsiz reflekslarning soni va turi barcha kishilarda deyarli bir xil bo‘la.di.
D) tashqi muhitning o`zgargan muhitiga organizmning moslashishini ta’minlaydi

**23.** Bosh miya katta yarimsharlari po‘stlog‘ining o‘ng (a) va chap (b) qismlari hamda ularning funksiyalari o‘rtasidagi muvofiqlikni aniqlang.
1) gavdaning chap tomonidagi organlar ishini boshqaradi; 2) so‘zlash, gapirishni ta ’minlaydi; 3) nutqdagi intonatsiyani boshqaradi; 4) mo‘ljal olishni ta ’minlaydi; 5) gavdaning o‘ng tomonidagi organlar ishini boshqaradi; 6) geometrik shakllar haqidagi axborotlarni analiz qiladi; 7) ohangni idrok qilishni nazorat qiladi; 8) o‘qish qobiliyatini nazorat. qiladi.
A) a - 1, 6; b - 3, 8 B) a - 4, 8; b - 5, 7
C) a - 4, 6; b - 2 , 8 D) a - 1, 4; b - 2, 6

**24.** Yashash uchun kurash turlariga mos keladigan misollar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
a) turlararo kurash; b) tur ichida kurash; c) anorganik tabiatning noqulay sharoitlariga qarshi kurash;
1) bir turga mansub o‘simliklarning yorug‘lik uchun kurashi; 2) o‘simliklarning viruslar, bakteriyalar, zamburug‘lar ta’irida nobud bo‘lishi; 3) o`simlik urug‘larining sovuqdan nobud bo‘lishi; 4) o‘simliklarning namlik yetishmasligi oqibatida nobud bo'lishi; 5) qush va sutemizuvchilarning o‘simlik urug‘lari bilan oziqlanishi.
A) a - 5; b - 1; c - 2 B) a - 2; b - 5; c - 4
C) a - 2; b - 1; c - 3 D) a - 5; b - 2; c – 4

**25.** Rediskaning guli...
1) turlicha uzunlikdagi gulbandlarga ega; 2) kalta gulpoyada joylashadi; 3) uzun gulpoyada gulbandlari yordamida joylashadi; 4) bir xil uzunlikdagi bandi bilan shoxlangan gulpoyaning uchki qismida joylashadi; 5) gultojbarglari qo‘shilmagan, ikkita halqada joylashgan; 6) kosachabarglari to‘rtta
A) 2, 4 B) 3 ,6
C) 4, 5 D) 1,2

**26.** Berilgan misollar turning qaysi mezonlarning nisbiy ekanligini ifodalaydi?
1) karam va turp kariotipi 18 ga teng; 2) erkak va urg‘ochi o‘rdak tashqi qiyofasidagi farq; 3) suvaraklarning rang jihatdan xonqiziga taqlid qilishi; 4) odam va shimpanze qonidagi gemoglobin oqsilining o‘xshashligi; 5) nasldor turlararo duragaylarning mavjudligi
a) biokimyoviy; b) genetik; c) morfologik; d) fiziologik; e) ekologik
A ) 1 - b; 2 - c; 3 - c ; 4 - a; 5 - d
B) 1 - b; 2 - c; 3 - d; 4 - a; 5 - e
C) 1 - a; 2 - c; 3 - c ; 4 - d; 5 - e
D) 1 - a; 2 - d; 3 - d; 4 - a; 5 – b

**27.** Sarvarning ertalabki nonushtasidan hosil bo‘lgan jami energiya 3103 kJ ga teng. Sarvarning nonushtasida oqsil va yog‘ miqdori teng, ularning yig‘indisi esa uglevod rniqdoridan 20 g kam bo‘lsa, nonushtadagi yog‘ va uglevoddan hosil bo‘lgan jami energiya miqdorini (kkal) toping.
A) 607 B) 451
C) 558 D) 402

**28.** Makkajo‘xori o‘simligining normal bo‘yi ikkita dominant noallel genlar orqali boshqariladi. Retsessiv allellarning bir yoki ikki xili gomozigota holatda uchrasa, o‘simlik bo‘yining past bo‘lishiga olib keladi. Past bo‘yli makkajo‘xorilar chatishtirilishidan normal bo‘yga ega bo‘lgan o`simlik olindi va ushbu duragaylarning o‘zaro chatishtirish natijasida avlodda 902 ta normal, 703 ta past bo‘yli o‘simlik olindi. Past bo`yga ega bo‘lgan o‘simliklar nechta genotipik guruh hosil qiladi.
A) 3 B) 4 C) 5 D) 2

**29.** Maxsus sharoitda ikkita DNK molekulasining birinchisidan Eco RI ( GCTTAAG ) ikkinchisidan Bam HI GGATCC CCTAGG restriktazalari yordamida jami 15 ta DNK bo‘lagi olindi. Agar barcha DNK bo'laklari tarkibidagi vodorod bog'lari yig‘indisi dastlabki ikki DNK molekulasi tarkibidagi vodorod bog‘lari yig'indisidan 116 taga farq qilsa, birinchi DNKda nechta vodorod bog‘ yo‘qotilgan?
A) 60 B) 56
C) 36 D) 80

**30.** Plazmidlar (a) va transpozonlar (b) uchun xos xususiyatlarni ko‘rsating.
1) tuban eukariotlar hujayralaridagi qo‘shimcha xromosomalar; 2) ko‘chib yuruvchi genetik elementlardir; 3) o‘simlik va hayvon hujayralarida topilgan; 4) DNK molekulasini yopishqoq uchlar hosil qilib kesuvchi ferment geniga ega; 5) monomeri nukleotidlardan iborat; 6) zaharli toksinni parchalovchi ferment geniga ega
A) a - 3, 5, 6; b - 1, 4, 5
B) a - 1 ,2 , 6; b - 3, 4, 5
C) a - 4, 5, 6; b - 1, 3, 5
D) a - 1, 5, 6; b - 2, 3, 4

Tuzuvchi: **“Ulug’bek”** o’quv markazi **Biologiya** fani o’qituvchisi **Bobur Beknazarov Tel: +99891 636 81 17**

# KIMYO

**1.** Quyidagi berilgan jadvaldan foydalanib A,B,C elementlarini aniqlab, $NA_3$, $CB_4$ va $SiC_4$ larning molekulyar massalarini aniqlang?

| Gaz | $T_{qay}$, $^0C$ | $T_{suyuq}$, $^0C$ | Kashf etilgan |
|---|---|---|---|
| A | -259,1 | -256,6 | 1766 yilda G. Kavendish |
| B | -251,85 | -248,1 | 1934 yilda M. Olifamta |
| C | -254,4 | -249,55 | 1932 yilda G. Yuri |

A) 17; 20; 40 B) 13; 16; 40 C) 16; 20; 36 D) 17; 24; 36

**2.** 80 kg og‘irlikka ega bo‘lgan odam o‘z tanasidan necha gramm (minimal miqdorda) suv yo‘qotsa, halok bo‘lishi mumkin?
A) 3000 B) 4550 C) 5200 D) 6250

**3.** Yoritkich lampochkasining ichki qismida (shishining ichi speralgacha bo‘lgan qismi) qaysi metall(ar) joylashgan?
A) Zn B) W C) Cu, Fe va Ni D) Sn, Pb va Sb

**4.** Allen hosil qilish uchun glitserindan foydalanildi. Natijada 12 g kumulyativ diyen hosil bo□ldi (reaksiya unumlari 40%, 80% va 75%). Dastlabki birikma massasini aniqlang.
A) 6,624 B)47,84 C)120,24 D)115

**5.** Elektroliz relyefli buyumlardan aniq nusxa olish uchun eng qulay usul hisoblanadi, elektroliz yordamida relyefli buyumlardan nusxa olish galvonaplastika deb ataladi. Bu usulni kim kashf qilgan?
A) M. Faradey B) B.S.Yakobi C) G. Devi D)N.N.Beketov

**6.** $2X + Y \rightarrow 2Z$ reaksiyada 224 g X moddadan reaksiya tugagach ($Mr_{(X)}$=28 g/mol) 56 g qolgan bo□lsa, reaksiya tezligini (mol/l*min) aniqlang. Reaksiya 24 sekund davom etgan. (V=1 litr)
A) 12 B) 15 C) 7,5 D) 10

**7.** Uglerod atomlari soni teng bo‘lgan spirt va aldegid massalari ayirmasi 1,2 g, yig‘indisi esa 87,6 g bo‘lsa, Spirtni aniqlang.
A) etanol B) metanol C) butanol-1 D) propanol-1

**8.** 32,4 g noma’lum fenolning yetarli miqdorda temir (III)-xlorid tutgan eritma bilan reaksiyasi natijasida 37,7 g binafsha rangli mahsulot olindi. Hosil bo‘lgan binafsha rangli moddaning molekulyar massasini aniqlang?
A) 335 B) 224 C) 331 D) 377

**9.** Fe yetishmovchiligi o‘simliklarda qanday kasalliklarni keltirib chiqaradi?
A) mikoz B) vertsilloz C) zang D) xloroz

**10.** Asetanilid (a) va pikramid (b) tarkibidagi gibrid orbitallar sonini ko‘rsating?
A) a-24/ b-45 B) a-48/b-52 C) a-28/b-46 D) a-32/ b-48

**11.** Kimning rahbarligida feromon tutqichlari yaratilgan, feromon tutqichlarining vazifasi nimadan iborat?
A) O.S.Sodiqov rahbarligi “polimerlanish reaksiyalarini tezlashtiriruvchi katalizator”
B)Sh.I. Solihov rahbarligida “Paxta zararkunandalariga qarshi kurashish” uchun
C) N.A. Parpiyev rahbarligida ”koordinasion birikmalar stereokimyosini o’rganish” uchun
D) Toshpo’latov rahbarligida “metall yuzasi bilan ishqalanishini kamaytiruvchi” modda sifatida

**12.** 1 mol etilatsetat va 1,2 mol metilmagniy yodid aralashtirilib, reaksiyaga kirishtirildi, olingan mahsulot gidrolizlandi. Oxirgi organik mahsulotlar va ularning massalarini (g) aniqlang.
A)butanon 72; metilmagniy yodid 33,2
B) atseton 58; etoksimagniy yodid 196; metilmagniy yodid 33,2
C) atseton 46,4; 2-metilpropanol-2 14,8
D) aseton 58; metilmagniy yodid 33,2

**13.** Gazlarning suvda erishi bo’yicha berilgan to’g’ri fikrlarni belgilang
1) bosim qancha past bo’lsa, eruvchanlik yuqori bo’ladi
2) bosim qancha yuqori bo’lsa, eruvchanlik yuqori bo’ladi
3) temperatura past bo’lsa, eruvchanlik yuqori bo’ladi
4) temperatura yuqori bo’lsa, eruvchanlik yuqori bo’ladi
5) gavvos qancha suv ostiga chuqur tushsa, uning qonida erigan gazlar ko’payadi
6) gavvos qancha suv ostiga chuqur tushsa, uning qonida erigan gazlar kamayadi
A) 1,4,6 B) 2,3,5 C) 2,4,6 D) 1,3,5

**14.** Indekslar yig‘indisining koeffitsientga ko‘paytmasi 140 bo‘lgan sulfat kislota bilan indekslar yig‘indisining koeffitsientga ko‘paytmasi 180 bo‘lgan bariy nitrat tuzi o’zaro reaksiyaga kirishganda hosil bo’lgan tuz(lar) massasini aniqlang
A) 233 B) 466 C) 4660 D) 2330

**15.** Markaziy atomning gibridlanishi $sp^3$, $sp^2$, sp tipida bo‘lgan molekulalar tartibini ko‘rsating.
A) $NH_3$, $BeH_2$, $BCl_3$ B) $CH_4$, $BeF_2$, $BH_3$ C) $H_2O$, $BF_3$, $BeCl_2$ D) $BF_3$, $H_2O$, $CO_2$

**16.** Sulfat angidrid gibrid orbitallari soni atomlari sonidan farqi bilan xlorat kislota gibrid orbitallari soni atomlari sonidan farqi ayirmasi nechaga teng?
A) 1 B) 2 C) 4 D) 5

**17.** x, y va z ning yig‘indisini toping.

| Modda | Molekulada-gi H atomlari soni | Bog‘lar soni | |
|---|---|---|---|
| | | Qutbli | Qutbsiz |
| Sikloalkan | a | y | X |
| Alkan | a | 10 | Z |

A) 16 B) 19 C) 18 D) 17

**18.** 12 g LiOH dan foydalanib qanday massali (g) 10 molyalli eritma tayyorlash mumkin? (Molyallik – 1 kg erituvchiga mos keluvchi erigan modda miqdori) A) 24 B) 62 C) 54 D) 80

**19.** pH va pOH qiymatlari 1:6 nisbatda bo‘lgan 200 ml eritmada nechta $H^+$ ionlari bo‘ladi?
A) $3{,}01 \cdot 10^{20}$ B) $6{,}02 \cdot 10^{18}$ C) $15{,}05 \cdot 10^{18}$ D) $1{,}204 \cdot 10^{21}$

**20.** Moslikni tanlang?
1)Sala 2)Arrinius 3)Joffrua 4)Mendeleyev 5)Kablukov 6)Mozli
a)o‘xshashlik jadvalini tuzdi b)ionlanish nazariyasi c)elektrolitik dissosiyalanish nazariyasi d)eritmalarni yog‘li, kislotali, suvliga ajratdi e)gidratlanish nazariyasini yaratdi f)yadro zaryadi va tartib raqami tengligini
A)1-d, 2-a, 3-b, 4-e, 5-c, 6-f; B) 1-d, 2-b, 3-a, 4-e, 5-c, 6-f;
C) 1-d, 2-b, 3-a, 4-c, 5-e, 6-f; D) 1-a, 2-b, 3-d, 4-e, 5-c, 6-f;

**21.** Qaysi moddalarning kristall tuzilishlari berilgan?



a b c

A) oq, qizil va qora fosfor
B) olmos, karbin va fullerin
C) olmos, grafit va fullerin
D) oq fosfor, rombik oltingugurt va fullerin

**22.** 2 mol atom Ag, 4 mol atom N, 48 mol atom O ga ega bo‘lgan $AgNO_3$, $Cu(NO_3)_2$ va suv aralashmasi 5 F tok kuchi bilan elektroliz qilinganda eritma massasi necha gr ga kamayadi? A)312 B)321 C) 240 D) 244,2

**23.** Gibrid orbitallari soni atomlari sonidan ayirmalarining yig’indilari 17 ga teng bo’lgan moddalar berilgan qatorni belgilang
A) sulfat kislota va nitrat kislota B) xlorat kislota va etan
C) pentanol va sulfat kislota D) sulfat angidrid va suv

**24.** Idishlarning hajm va massa nisbatlari mos ravishda 1:2:3 bo‘lsa 1-idishga kislorod gazi to‘ldirib og‘irligi o‘lchansa 37,8 gr 2-idishga azot gazi to‘ldirib og‘irligi o‘lchansa 72,4 gr bo‘lsa 3-idishga metan to‘ldirganimizda massasi necha gr bo‘ladi? A) 19,2 B) 48,4 C) 94,2 D) 85,6

**25.** 73,5 gr bertole tuzi bilan xlorid kislota ta’sirlashuvi natijasida olingan gaz mahsulot yetarli miqdordagi sulfit kislota eritmasiga shimdirildi. Hosil bo‘lgan eritmani neytrallash uchun 3,6 M li NaOH eritmasidan necha ml talab qilinadi. A) 1500 B) 2000 C) 1800 D) 1000

**26.** Benzol hosil bo‘lishi uchun sarflanadigan energiya 1314 kkal/mol ga teng. Agar benzol molekulasidagi oddiy –C–C– bog‘ energiyasi 81 kkal/mol, qo‘shbog‘ –C=C– energiyasi 147 kkal/mol va benzol halqasining rezonans energiyasi 36 kkal/mol ga teng bo‘lsa, benzol halqasidagi 6 ta bog‘ energiyasini (kkal/mol) hisoblang. A)351 B)99 C)666 D)594

**27.** 1825 yil X.Ersted tomonidan va 1755 yilda J.Blek tomonidan kim kashf qilingan elementlardan 0,2 moldan olinib xlorid kislota eritmasida eritilsa hosil bo’lgan tuz(lar)ning massa farqi nechga teng bo’ladi?
A) 26,7 B) 19 C) 7,7 D) 18,6

**28.** Sariq rangga xos xossani namoyon qiladigan moddalar qatorini belgilang
1) $Ag_3PO_4$ 2) AgCl 3) AgI 4) AgF 5) K 6) NaCl 7) $BaSO_4$ 8) Na 9) AgBr 10) $CaCO_3$
A)2,6,7,10 B) 1,3,8,9 C) 1,2,4,9 D) 1,3,5,9

**29.** 27,2 gr vodorod sulfid bilan temir (III) xlorod ertimasiga yuttirilganda (75 % unum bilan) qattiq modda olindi. Qattiq modda natriy ishqor bilan reaksiyaga kirishganda hosil bo’lgan tuzlar massa farqini aniqlang
A) 3,2 B) 25,2 C) 15,6 D) 6

**30.** 9,6 ta $sp^3$ orbitali bo’lgan gliserin bilan 3,2 ta $sp^3$ orbitali bo’lgan nitrat kislota reaksiya kirishganda necha gr modda hosil bo’ladi?
A) 72,8 B) 36,4 C) 18,2 D) 91

**TUZUVCHI: “OXFORD” o’quv markazi Kimyo fani o’qituvchisi LAZIZ QOBILOV +99891-561-05-99**

# GEOGRAFIYA

**1.** Quyidagi kon nomlaridan, O’zbekistondagi slanes konlarini ko’rsating.
A) Sayxon, Tergach B) Sangruntov, Oqtov-Slanes
C) Chambar-Slanes, Varikli D) Uchqir-Qo’lbeshkon, Gajak
**2.** Qaysi davlat 2012-yildagi tashqi savdo hajmi bo'yicha jahon mamlakatlari ichida 11-o'rinni egallaydi?
A) AQSH B) Germaniya C) Janubiy Koreya D) Yaponiya
**3.** Qarshi shahridagi sanoat tarmoqlari tarkibida qaysi sanoat yetakchi o’rinda turadi?
A) yengil va oziq-ovqat B) yoqilg’i va kimyo
C) mashinasozlik va oziq-ovqat D) yog’ochsozlik va qurilish
**4.** Rasmda raqam bilan berilgan vulqon otilishi bilan bog’liq jarayonlardan, burmalangan qatlamlarni ko’rsating.




A) 2 B) 3 C) 4 D) 1
**5.** Qoraqum va Qizilqum hududlarining paydo bo’lishi, materiklarning siljish g’oyasini qaysi olim birinchi bo’lib aytgan?
A) al-Xorazmiy B) Abu Rayhon Beruniy
C) al-Farg’oniy D) al-Forobiy
**6.** Buyurtmaxonalarning qo'riqxonalardan farqi nimada?
A) buyurtmaxonalarning maydon qo’riqxona maydonidan katta bo’ladi
B) jonli va jonsiz tabiat yaratgan noyob, diqqatga sazovor obyektlar ko’paytiriladi buyurtmaxonada
C) buyurtmaxonalarning maydonlari yer fondidan ajratib olinmaydi
D) buyurtmaxonalarda suvlik maydonlari katta maydonni egallaydi
**7.** O’rta Osiyo tabiatini o’rganishda uchinchi bosqichda ishtirok etgan olimlarni ko’rsating.
A) D.I. Sherbakov, V.L.Shuls, N.A.Kogay
B) V.A. Obruchev, L.S. Berg, D.V. Nalivkin
C) N.A.Kogay, N.A. Seversov, Mahmud Qoshg’ariy
D) Yoqut ibn Abdulla, F.Yefremov, B.Pazuxin
**8.** G’isht, betondan ishlangan uylar butunlay yoki qisman buziladi, yer osti quvurlari uziladi. Qoyalar qulab, tepalikalr suriladi, yerdagi yoriqlarning eni 10 sm gacha boradi. Yuqoridagi jumla, qaysi zilzila kuchiga to’g’ri keladi?
A) juda kuchli B) yakson etuvchi
C) o’ta vayron qiluvchi D) halokatli
**9.** Hozirgi zamon atlaslarining asosiy xususiyati nimada?
1. Umumiyligi, 2. undagi xaritalarning bir butunligi, 4. Xatoligi ko’pligi, 5. bir-biriga muvofiqligi, 6.bir-birini to‘ldirishi
A) 1-2-3 B) 2-3-4 C) 2-5-6 D) 4-5-6
**10.** *Go’sht, jun, qorako’l teri* eksport qiluvchi Afrika subregionini belgilang.
A) Sharqiy Afrika B) Shimoliy Afrika
C) G’arbiy Afrika D) Janubiy Afrika
**11.** O’zbekiston-Isroil qo’shma korxonasi ishga tushirilgan yildan 5 yil o’tgach, bu 5 yildan keyin yana 7 yil o’tgach O’zbekiston iqtisodiyot tarmoqlarida qanday o’zgarish yuz berdi?
A) Kimyo va neft-kimyo mashinasozligi tashkil topdi
B) Asaka avtomobil zavodi qurila boshlandi
C) Yaponiya bilan hamkorlikda Isuzu rusumli avtobus va kichik yuk avtomashinalari ishlab chiqarishga kirishildi
D) Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi qurildi
**12.** Jinnidaryo, Oqsuv, Yakkabog‘ va Tanxoz daryolarining to’yinish manbaini ko’rsating.
A) qor va muz B) muz va qor C) yomg’ir va qor D) qor
**13.** Protestantlik Yevropaning qaysi qismida keng tarqalgan?
A) shimolida qisman g‘arbida, markazida.
B) janubida qisman g‘arbida, markazida.
C) janubida qisman sharqida, markazida.
D) shimolida va markazida.
**14.** Temir rudasini jahon bozoriga chiqarishda qaysi davlatlar ajralib turadi?
A) Markaziy Afrikadagi Zambiya va KDR.
B) Yaponiya, Rossiya, AQSH, Ukraina, Germaniya.
C) Braziliya, Avstraliya, Xindiston, JAR, Liberiya, Ukraina
D) Kanada, AQSH, Rossiya, Fenlandiya, Shvetsiya.
**15.** Eng qoloq mamlakatlar ro’yxati 1971-yilda nechta bo’lgan?
A) 48 ta B) 51 ta C) 12 ta D) 24 ta
**16.** Mustaqillik yillarida olib borilgan izlanishlar natijasida Buxor va Naoiy iqtisodiy rayonining qaysi hududlarida neft va gazning katta zaxirasi ochildi?
A) Qandim, Oqqum, Gazli B) Zevardi, Oqqum, Porsonko’l,
C) Qandim, Oqqum, Porsonko’l D) Oqqum, Gazli, Zevardi
**17.** Katta davlatlarning kichik davlatlar oldidagi yutuqli jihatlari g`oyasi, qaysi geosiyosatchiga tegishli?
A) K.Xausxafer B) R.Chellen C) F.Maltus D) F.Ratsel
**18.** Sharqiy Sibir iqlimining G’arbiy Sibir iqlimidan farqi nimada?
A) keskin kontinentalligi B) mussonligi
C) mo’tadilligi D) kontinentalligi
**19.** Yaponiyada bir yilda, eng ko’pi bilan qancha baliq istemol qilinadi?
A) 6350 mln tonna B) 6 mln 350 ming tonna
C) 6 mln 350 ming kg D) 15 mln tonna
**20.** Braziliya tog‘ligidagi o‘rmonlarda yomg‘irli mavsum uzoq davom etadi, qurg‘oqchil davr necha oygacha cho‘ziladi?
A) 2 – 3 oygacha B) 4 – 5 oygacha
C) 1 - 2 oygacha D) 3 – 4 oygacha
**21.** Xitoyga safar uyushtiradi va uning ma'lumotlari Ptolemeyning xaritasida tasvirlanmagan joylarni to'ldiradi.bu qaysi sayyoh?
A) 982-yil Erik Rauda
B) Erik Rauda o'g'li Leyve Eriksson
C) 1271-1295-yillarda venetsiyalik Marko Polo
D) 1466-1472-yillarda A. Nikitin
**22.** Natur qo’riqxonasi qaysi orolda joylashgan?
A) Kalimantan B) Grenlandiya C) Baffin Yeri D) Gaiti
**23.** Olmaliq kombinati chiqindisi-oltingugurt gazidan, qaysi zavodda mineral o’g’it ishlab chiqariladi?
A) ammofos B) metallurgiya C) Biokimyo D) Gidroliz
**24.** Korolevskoye va Oqbuloq oltin koni, Guzaksoy, Pirmirob va Oqtepa kumush konlari qaysi viloyat hududida?
A) Toshkent B) Namangan C) Farg’ona D) Jizzax
**25.** Germaniyaga neft qayerdan keltiriladi?
A) AQSHdan, G`arbiy Sibirdan va Fors ko`rfazidan
B) Rossiyadan, Boltiq dengizi, shimoliy Afrika va Fors ko`rfazidan
C) Rossiyadan, shimoliy Afrika va Meksika ko`rfazidan
D) Rossiya, Shimoliy dengizi, Afrika va Fors ko`rfazidan
**26.** Shimoliy Amerikaning qaysi geografik o’lkasi uchun, *shuvoqlar, turli butalar, sho’ra* o’simliklari va *bison, antilopa, kemiruvchi, sudralib yuruvchilar* xos?
A) Aqsh va Kanada Kordilyerasi
B) Meksika va AQSH Kordilyerasi
C) Katta Havza va Koloroda platosi
D) Alyaska va Kanada Kordilyerasi
**27.** Quyi Amudaryo okrugidagi qumoq va qumli tuproqlar qaysi yerlarda tarqalgan?
A) Amudaryoning hozirgi zamon deltasining yuqori qismida
B) Amudaryoning qadimiy deltasida va qisman hozirgi deltasida
C) Ustyurt chegarada
D) okrugning Qoraqum va Qizilqumga tutash yerlarida
**28.** Ohaktoshlarni yemirayotgan sharshara qaysi ko’l tomon chekinmoqda? A) Eri B) Vetter C) Eyr D) Urmiya
**29.** Qanaday tog’ jinslari tarqalgan joylarda, sug’orishda meyoriy qoidalarga amal qilinmaganligi sababli, qiyaligi 2° dan katta bo’lgan joylar eroziyaga duchor bo’ladi?
A) gill jinslari B) ohaktosh
C) konglomerat D) lyoss va lyossimon
**30.** Okean suvida eng kam, daryolar suvida esa eng ko’p tarqalgan tuz qaysi? A) magniy B) kalsiy C) kaliy D) kalsiyli-magniyli

**"ILM-U ZIYO"** o`quv markazi **Geografiya** fani o`qituvchisi **Asliddin Nurmatov**
**Tel : +99897 464 64 94**

# "ILM–U ZIYO SCHOOL" BOLALAR MAKTABINING HARBIYLASHTIRILGAN SINFLARI


Reklama o'rnida

## ILM-U ZIYO MAKTABI

"ILM-U ZIYO SCHOOL" NTM

*Binoning mustahkamligi poydevorning sifatiga bog'liq!*

ILM-U ZIYO MAKTABI BARCHA O'QUVCHILARNI O'QISHGA TAKLIF ETADI!

BIZDA 5-6-7-SINFDA O'QUVCHI FARZANDINGIZ UCHUN:
-ICHKI ISHLAR AKADEMIK LITSEYIGA IXTISOSLASHGAN SINFLAR;
-MILLIY GVARDIYA VA HARBIY BILIM YURTIGA IXTISOSLASHGAN SINFLAR MAVJUD.








## ILM-U ZIYO MAKTABI

"ILM-U ZIYO SCHOOL" NTM

BIZDA 5-6-7-SINFDA O'QUVCHI FARZANDINGIZ UCHUN:
-ICHKI ISHLAR AKADEMIK LITSEYIGA IXTISOSLASHGAN SINFLAR;
-MILLIY GVARDIYA VA HARBIY BILIM YURTIGA IXTISOSLASHGAN SINFLAR MAVJUD.

Har kuni soat 7:00 dan 8:30 gacha
JISMONIY TAYYORGARLIK O'TKAZILADI!
Ertalabki nonushta: 8:30 dan 9:00 gacha
1-soat 9:00 kirish 9:45 chiqish
2-soat 9:50 kirish 10:35 chiqish
3-soat 10:40 kirish 11:25 chiqish
Ovqatlanish: 11:30 dan 11:50 gacha
4-soat 11:55 kirish 12:40 chiqish
5-soat 12:45 kirish 13:30 chiqish
Dam olish soati: 13:30 dan 15:00 gacha
Ovqatlanish: 15:00 dan 15:30 gacha
O'quvchilarni ixtisoslashgan sinflariga asosan qo'shimcha darslar majburiy tartibda olib boriladi.
Masalan: Ichki ishlar akademik litseyiga ixtisoslashgan sinflar uchun:
•I-blok: Tarix
•II-blok: Ona tili va adabiyoti
•III-blok: Ingliz tili
Dars vaqti: 15:30 dan 16:30 gacha I-blok fani
Dars vaqti: 16:30 dan 17:30 gacha II-blok fani
Dars vaqti: 17:30 dan 18:30 gacha III-blok fani
Ovqatlanish: 18:30 dan 19:00 gacha
Psixologik tayyorgarlik 19:00 dan 19:30 gacha
Bir oyda 2 marta tanlangan yo'nalish bo'yicha DTM talablariga mos ravishda 3 blokli test o'tkazib boriladi va natijalari ota-onalarga muntazam yetkazib turiladi.
O'quvchilar turar joy bilan ta'minlanadi.
Uyga kuzatish vaqti: Shanba 13:00 dan
DAM OLISH KUNI YAKSHANBA.
Manzil: Qarshi shahar, Paxtazor mitti tumani.
Mo'ljal: 15-Maktab, Paxtazor restorani.
Tel: +998 91 227-87-66; +998 97 313-99-00

Xizmatlar litsenziyalangan.



ISSN - 2010-7455
**BILIM DUNYOSI**
Gazeta 2007-yil 24-noyabrdan chiqa boshlagan

*Gazeta 2013-yil 15-aprel kuni Qashqadaryo viloyat Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan ro'yxatga olingan. Ro'yxatga olish raqami 14-096.*
E-mail: bilimgz@inbox.uz

Bosh muharrir Uchqun RAHMONOV

*Muassis: "Noshir-reklama Axborot" MChJ. Gazeta "Sherdor plyus poligraf" bosmaxonasida chop etildi. Korxona manzili: Samarqand shahri, 140100, Ulug' Tursunov ko'chasi, 82-uy.*

*Tahririyat manzili: Qarshi shahri, Komilon ko'chasi 49-uy. Telefon: +99890 609-00-39.*

*Sotuvda kelishilgan narxda.*

*Chop etishga ruxsat berilib, imzo qo'yilgan vaqti: 15.00*
*Gazetaning obuna indeksi - 4056.*
*Adadi - 2097*
*Hajmi 2 bosma taboq.*
*Buyurtma raqami*
*Navbatchi L.Elmatov*
*Gazeta bir oyda 2 marta chiqadi.*

*Gazeta tahririyat-ning matbaa bo'limida sahifalandi.*